

Narziyeva Sarvinoz Jamshid qizi

Buxoro shahar Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini o'rGANISH va nutq nuqsoniga ega bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullarini, logoped, tarbiyachi va ota-onalar bilan suhbat o'tkazish. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan va nutq nuqsoniga ega bolalarning mustaqil nutqini rivojlantirishni takomillashtirish hamda tasniflash haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Nevrotik duduqlanish, nevrozsimon duduqlanish, kognitiv, kognitiv va affektiv jahbalar, genetik, ijtimoiy va shaxsiy omillar, fonetik, leksik va grammatik vositalar.

Korreksion pedagogika fani rivojlanib borib, ayrim sohalari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Shu fanlar jumlasiga logopediya ham kiradi. Logopediya (logos - so'z, padeo - tar- biyalash, o'rgatish degan ma'noni anglatadi) - pedagogik fanlardan biri bo'lib, nutq kamchiliklari va ularning sabablarini o'rGANISH, shuningdek, bularning oldini olish, borlarini bartaraf etish uchun maxsus ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish masalalari bilan shug'ullanadi. Logopediya fani mavzu bahsi, nutq kamchiligi bor kishilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayoni. Nutq kamchiligi bor kishi esa logopediya fanining o'rGANISH mavzusi hisoblanadi. Hozirgi zamon logopediyasiga maktabgacha yoshdagi bolalar logopediysi, o'smirlar hamda kattalar logopediysi, maktab yoshdagi bolalar logopediysi kiradi. Logopediya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Turli xil nutq kamchiliklari bor kishilarning nutq faoliyati ontogenesini o'rGANISH.
- Nutq kamchiliklarining sabablari va simptomatikasi, ular ning turlari, kelib chiqish mexanizmlarini o'rGANISH, dara-jasini aniqlash.
- Nutq kamchiliklar ini kishi faoliyati, shaxsiyati, xulq-atvori, ruhiy rivojlanishiga ta'sirini o'rGANISH.
- Eshitish, ko'rish, intellektual va boshqa kamchiliklarga ega bo'lgan anomal bolalar nutqiy faoliyatining ahvoli, yetish- movcbiliklarini o'rGANISH, aniqlash.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa tibbiyotining nutq buzilishlarini o'rGANISH borasida qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining katta ta'siri bo'lib, A.Kusmaul nutq buzilishlarining dastlabki turlari haqidagi yig'ilgan tasavvurlarini tanqid ostiga oldi; ularni sistemalashtirdi, atamalarni tartibga keltirdi. XX asr boshida chet ellik va rus tadqiqotchilari V.Oltushevskiy, G.Gutsman, E.Freshels, S.M.Dobrogayevlarning ishlarida asos qilib olindi. Buning umumiy tomoni ko'p

edi; etiopatogeneztik mezon bilan to'ldirilgan klinik yondashuv, buzilishlarning alohida turlari bilan kasallikning u yoki bu patalogik shakli o'rtasidagi bog'lanish, bunday xollarda nutq buzilishlari ko'pincha u yoki bu kasallikning alomati sifatida talqin qilinar edi, shuningdek, tasnif tili bunda lotin va grekcha so'z yasovchi elementlaridan tashkil topgan atamalardan qo'lanilgan. Tasniflar o'rtasida buzilishlarni guruhashning turli prinsiplari, shuningdek, u yoki bu mezonni tasniflashning muhimlik darajasiga bo'lgan qarashlaridagi ayrim qaramaqshiliklar bilan bog'liq nomutanosibliklar ham kuzatiladi .Mutaxassislar nutqning o'z vaqtida rivojlanmasligi yoki keskin sekinlashuvining sabablari juda ko'p ekanligini aniqlashgan: - Homiladorlik davri (perinatal davri); - Tug'ruq davri (natal davri); - Tug'ruqdan keyingi davr (postnatal davr). Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish, turli xil infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gepoksiya yoki kislorod yo'qotish, qon bosimining oshishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi. Homiladorlik paytida sigaret, alkogol va giyohvandlik moddalarini iste'mol kilish, o'z-o'zini davolash, ya'ni ayrim doridarmonalarni qabul qilish. Homiladorning homila uchun xavfli bo'lgan joylarda ishlashi (radiatsiya). Tug'ruq davrida akusherlik patologiyalari ya'ni, tos suyagining kichkinaligi, homilaning kindik o'qiga o'ralishi. Tug'ruqdan oldin suv ketishi, homilaning noto'g'ri joylashishi, tug'ruq jarayonida bosh miyaning jarohatlanishi, tug'ruq jarayonidagi asfiksiya natijasida bolaning ko'karib tug'ilishi.

Tug'ruqdan keyingi davr - 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davrda bosh miyadan turli xil jarohatlarni olish, bosh miyadagi infeksiyalar, turli xil yuqumli kasalliklar sababli yuzaga keladi. Nutq nuqsonlarini tasniflashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroki tekshirib olinadi. Nutq nuqsonlari og'ir-yengilligiga qarab guruhlarga ajratiladi. 1. Dislaliya – bu artikulyatsion apparat a'zolari normal innervatsiyasida yuzaga kelgan logopatsiya bo'lib, asosan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar va ba'zan fonematik idrok rivojlanmaganligi bilan namoyon bo'ladigan yengil nutq nuqsoni. 2. Dizartriya - bu artikulyatsion apparat a'zolari innervatsiyasining organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, juft neyronlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Falajlanish asosan bir tarafdan, chap yoki o'ng tarafdan bo'ladi. Bola tili asosan paretik falajlangan bo'shashgan yoki spastik, ya'ni tarang falajlanishda bo'ladi. 3. Alaliya - bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, bu tashxis eshitishi va zakovati me'yorda bo'lgan shaxslarga qo'yiladi.

Bola nutqining bosh miya jarohatlanishi, neyroinfeksiya yoki, miya shishi natijasida yo`qolishi nutqning shakllanib bo`lganidan so`ng yuz beradi. Agar bunday buzilish uch yoshdan so`ng sodir bo`lsa, unda bolalar afaziyasi deb

nomlanadi. Agar buzilish kattaroq yoshda yuz bergen bo`lsa, unda afaziya haqida fikr yuritiladi. Yozma nutqning buzilishi. Uning qaysi turi buzilganiga qarab ikki guruxga ajratiladi. Maxsuldar tur buzilganida yozuvning zaiflashuvi, reseptli yozma faoliyat buzilganida - o`qishning zaiflashuvi qayd qilinadi.

1. Disleksiya - o`qish jarayonining qisman o`ziga xos buzilishi. Harflarni idrok etish va tanishdagagi qiyinchiliklarda; harflarni bo`g`inlarga qo`shish va bo`g`inlardan so`z tuzish borasidagi tutilishlarda (bu so`z shakllarini noto`g`ri talqin qilishga olib keladi); agrammatizmda va o`qiganlarini buzib tushunishda namoyon bo`ladi.

2. Disgrafiya - yozish jarayonining qisman o`ziga xos ravishda buzilishi. Harfning optik-fazoviy obrazining turg`un emasligida, harflarning aralashib ketishi yoki tushib qolishida, so`zning so`z-bo`g`in tarkibini bayon qilish va gap qurilishida. namoyon bo`ladi. O`qitish davomida yozish jarayoni shakllanmagan xollarida agrafiya haqida fikr yuritiladi.

Bolalardagi yozish va o`qishning buzilishi bu jarayonlarni to`liq holda amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bilim va kunikmalarni uzlashtirishdagi qiyinchiliklar orqali yuzaga keladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko`ra, bu qiyinchiliklar og`zaki nutqdagi nuqsonlar (optik shakllardan tashkari), tovush tahlili ishining shakllanmagani va ixtiyoriy diqqatning bekarorligi bilan bog`liq bo`ladi. Bolalardagi yozish va o`qishning buzilishini yozish, o`qishdagi bilim va kunikmalarning yuqolishidan, shuningdek afaziya paytida yuzaga keladigan disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) day ajrata bilmok lozim. Shunday kilib, logopediyada nutq buzilishlarining 11 ta shakli ajratiladi, ulardan 9 tasi orzaki nutq natijasi va ishlab chiqarishning turli jarayonlaridagi buzilishlarni tashkil etadi. Qolgan 2 ta shakl esa yozma nutqning buzilish jarayoni bilan bog`liq holda ajratiladigan buzilishlarni uz ichiga oladi. Og`zaki nutqning buzilishlari orasida disfoniya (afoniya), taxilaliya, bradilaliya, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya (anartriya), alaliya, afaziya ajratiladi; yozma nutqning buzilishlari orasida disleksiya (aleksiya) va disgrafiya (agrafiya) ajratiladi. Psixologik-pedagogik tasnif tibbiy tasniflarni pedagogik jarayonda qo`llanish nuqtai nazaridan tankidiy tahlil qilish natijasida vujudga keldi (bu uslub logopedik ta`sir etish deyiladi). Bunday tahlil logopediyani nutqiy rivojlanishi buzilgan bolalarni o`qitish va tarbiyalashga jalb etish bilan bog`liq holda juda muhim buldi. Olimlarning ilmiy izlanishlari e'tibori bolalar jamoasi bilan ishlash uchun zarur bo`lgan logopedik ta`sir etish metodlarini ishlab chiqishga yo`naltirilgan edi. Buning uchun bolalardagi nutqning nonormal rivojlanishining turli shakllaridagi nuqsonlarning umumiyo` ko`rinishi, ayniqsa, o`qish jarayonida tuzatish uchun dolzarb hisoblanganlarini topish zarur edi. Bunday yondashuv buzilishlarni guruholashda boshqacha prinsipni talab kildi. Bu shunday prinsipki, tibbiy tasniflash (umumiydan xususiyga emas, balki xususiydan umumiy-ga

bo`lgan) uning asosiga ko`riladi. Bu uni lingvistik va ruhiy mezonlar asosida ko`rishga imkoniyat yaratdi. Ular orasida Nutq sistemasining tuzilish komponenti (tovush tonomi, gram-matik tuzilishi, lug’at zonasi), nutqning funksional jihatlari, nutqiy faoliyat turlarining (og’zaki va yozma) o’zaro aloqadorligi hisobga olinadi. Keltirilgan tasnifda nutq buzilishlari ikki guruhga bo`linadi. Birinchi gurux — muomala vositalarining (nutqning fonetik-fonematik va umumiy rivojlanmay qolishi) buzilishi.

1. Nutqning fonetik-fonematik rivojlanmay qolishi - bolalarda ona tilini talaffuz qilish sistemasi shakllanish jarayonlarining fonemalarini idrok etish va talaffuzdagi nuqsonlar oqibatida turlicha Nutq zaiflashuvlari bilan bog’liq ravishda buzilishidir.

2. Nutqning to`liq rivojlanmay qolishi — turli xil murakkab Nutqiy kamchilikdir, bunda nutq sistemasining tovush chiqarish va ma’noli tomonlariga taallukli barcha komponentlarining shakllanish jarayoni buzilgan bo`ladi. Yuqoridagi tasnifda yozish va o`qishning buzilishi alohida nutq buzilishi sifatida ajratilmaydi. Tasniflashda sistemali yondashuv prinsipiغا izchil tayanish aks etadi, uning asosida ikkita o’zaro bog’lanish hisobga olinadi: nutqiy faoliyat sistemasidagi buzilishlarning o’zaro bog’lanishi va bolaning bir ko`rinishdagi ruhiy jarayoni hamda boshqa ruhiy tomonlaridagi buzilishlarning o’zaro aloqadorligi, ularning rivojlanishi nutq bilan uzviy bog’langandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova.M.Y. —Logopediya O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent – 2007.
2. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi Ma’ruza matni .T-2001
3. L.R.Mo’manova ,SH.M.Amirsaidova ,M.U.Xamidva –Maxsus psixologiya O’zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.Toshkent -2013
4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye chrestomatiya - Exmo-Press.